

Italiyada Erasmus + “MUSAE: “San’at sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning ko‘p tarmoqli ko‘nikmalari”/ Multidisciplinary Skills for Artists’ Entrepreneurship” loyihasi doirasida treninglar o‘tkazildi.

2023-yilning 6-iyulidan 13-iyuliga qadar Italiyaning L’Aquila shahrida Erasmus + “MUSAE: “San’at sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning ko‘p tarmoqli ko‘nikmalari” loyihasi doirasida 9 ta universitet (O‘zbekiston, Falastin va Tunis) talabalarining treninglari va loyihalari taqdimotlari bo‘lib o‘tdi. O‘zbekistondan Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti, K.Bekzod nomidagi Amaliy san’at instituti hamda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi talabalari qatnashdi . Talabalar turli yo‘nalishlarda o‘zlarining innovatsion ishlarini taqdim etdilar, ularning har biri aholining turli qatlamlarini, ta’lim va kasbiy sohalarda va hokazolarni qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan to‘liq loyihalardir.

























Shuningdek, shu davrda loyiha boshqaruvi a'zolarining yig'ilishi bo'lib o'tdi, unda talabalar tomonidan taqdim etilgan ishlar, loyiha natijalarini tarqatish, kelgusidagi vazifalar va moliyaviy masalalar muhokama qilindi. Bundan tashqari, keyingi uchrashuvlar va ular bilan bog'liq masalalar muhokama qilindi.



